

---

## TOSHLOQ TUMANIDA «YASHIL MAKON» LOYIHASI DOIRASIDA KUZGI KO'CHAT EKISH TADBIRLARI BO'LIB O'TMOQDA

Bugun tuman Obodonlashtirish boshqarmasi ishchi-xodimlari tomonidan tuman markaziga "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini ekish ishlari olib borildi. Mazkur tadbirda tuman hokimi Abdurahmonov manzarali ko'chatlarni ekib, bugungi daraxt ekish ishlarini boshlab berdi. Hozirgi qadalayotgan har bitta nihol ertangi kunda farzandlarimiz, kelajak avlod uchun ham fayzli bog'-rog' ham ibrat maskani sifatida qolishi, havo musaffoligi uchun ulush bo'lib qo'shiladi, - deydi tuman hokimi.

Toshloq tumanida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish ishlari yuqori saviyada davom etmoqda.

2023-11-02 10:31:02